

Arab Muhammadxon



Arab Muhammadxon

(XVI asrning 2-yarmi – 1623 yil)

(1602-1623)

Xiva xoni. **Shayboniyalar sulolasidan** Xorazm xoni **Hoji Muhammadxon** (Hojimxon) (1598-1602 yillar)ning kenja o'g'i. Otasi hayotligida Xiva hokimi bo'lgan. Otasi vafotidan so'ng 1602 yili xonlik taxtiga chiqqan. **Abulg'ozzi Bahodirxonning** yozishicha, uning davrida Rossiya chegarasini qo'riqlab turgan Yoyiq kazaklari atamani **Nechay** va ataman **Shamay** boshchiligidagi Urganchga hujum qildilar. Ularni Xiva qo'shinlari tor-mor qildilar. 1620 va 1621 yillarda qalmoqlar Xorazmga yurish qilib, kishilarni asirga olganlar. Uning davrida Xiva xonligiga qalmoq va qozoqlar bir necha marta hujum qilib g'alabaga erisha olmadilar. Arab Muhammadxon davrida Xiva xonligida davlat parokandalik yuqori nuqtasiga yetgan. Amudaryo o'zanining o'zgarishi va natijada uning qurib borishi bu davrda ham davom etdi. Natijada, Arab Muhammadxon xonlik poytaxtini Urganchdan Xivaga ko'chirishga majbur bo'lgan. Tarqoqlik va urushlar avj olganligi Xivaning ma'muriy tuzilishiga ta'sir etdi. Arab Muhammadxon davrida ichki nizolar avj olib, xonlikning ma'muriy tuzilishiga salbiy ta'sir etgan. Chunonchi, har bir shahzodaning o'z yerida shaxsiy idora apparati – o'z ayonlari, xazinasi, yasovullari, bojxona xizmatchilari va boshqalar bo'lgan. 1623 yilda o'g'illari **Habash** va **Elbars** sultonlar taxt talashib unga qarshi urush boshladilar. Bu urushda Arab Muhammadxon yengilib, Qum qal'aga qamalgan va o'sha yerda 1623 yilda vafot etgan.

2023-11-05 18:18:00